



O'ZBEKISTONDA STARTAP LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Mamarasulov Beknazar Bektemir o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda O'zbekistonda startap loyihalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. So'nggi yillarda mamlakat startap ekotizimi jadal sur'atlarda kengaymoqda: xalqaro Dealroom platformasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yildan buyon ekotizim qiymati o'n uch barobar o'sib, 3,9 milliard AQSh dollariga yetgan, hozirda mamlakatda 650 dan ortiq startap faoliyat yuritib, taxminan 7 ming kishini ish bilan ta'minlamoqda. Shunga qaramay, loyihalarning dastlabki — g'oya va urug'lik (seed) — bosqichlarida mablag' yetishmasligi ular rivojlanishidagi asosiy to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda. Maqolada davlat grantlari, venchur fondlari, farishta investorlar va maxsus huquqiy rejimlar kabi moliyalashtirish mexanizmlari tahlil qilinadi, xorijiy davlatlarning tegishli tajribasi umumlashtiriladi, O'zbekistonda mavjud huquqiy-institutsional baza hamda uning amaliyotdagi kamchiliklari aniqlanadi. Tadqiqot natijasida venchur investorlar uchun soliq imtiyozlari joriy etish, maxsus huquqiy rejimni kengaytirish va mintaqaviy startap infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha bir qator amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. *startap ekotizimi, venchur kapital, farishta investorlar, Innovatsion rivojlanish jamg'armasi, tartibga solish qumdoni, moliyalashtirish mexanizmlari, davlat-xususiy sheriklik, IT Park.*

Kirish

Raqamli iqtisodiyot sharoitida startap loyihalar innovatsion g'oyalarni bozor mahsulotiga aylantiruvchi, yangi ish o'rinlari yaratuvchi va iqtisodiy



o'sishni ta'minlovchi muhim omilga aylanmoqda. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan startap ekotizimiga ega mamlakatlarda ventur kapital bozori, davlat qo'llab-quvvatlash dasturlari va xususiy investorlar o'rtasidagi uyg'un hamkorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda startap harakati sezilarli darajada jonlandi. Toshkentda va boshqa yirik shaharlarda texnoparklar, akseleratsiya va inkubatsiya dasturlari, ventur fondlari faoliyat yurita boshladi. 2025-yilda o'tkazilgan Startup & Venture Summit natijalariga ko'ra, mamlakat startap ekotizimining o'sish sur'ati bo'yicha bir qator xorijiy bozorlardan ham o'zib ketgan. Xalqaro DOMiNO Ventures jamg'armasi Markaziy Osiyodagi birinchi xalqaro ventur fondini 20 million dollarlik kapital bilan tashkil etishini e'lon qildi, mahalliy AloqaVentures va IT Park Ventures fondlari esa startaplar bilan yangi bitimlar tuzmoqda.

Shunga qaramay, moliyalashtirish masalasi hamon startaplar rivojlanishidagi eng jiddiy cheklovlardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa dastlabki bosqichlarda bank kreditlari garov ta'minoti talablari tufayli amalda foydalanib bo'lmaydigan holatga aylanadi, ventur investorlar uchun esa mahalliy soliq va huquqiy muhit hali yetarlicha qulay emas. Shu sababli startap loyihalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, mavjud mexanizmlarni kengaytirish va xorijiy tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Startap loyihalarni moliyalashtirishning asosiy shakllari

Xalqaro va mahalliy amaliyotda startaplarni moliyalashtirishning bir necha bosqichli modeli shakllangan. Dastlabki — g'oya (pre-seed) va urug'lik (seed) — bosqichlarda asosan davlat grantlari, akseleratsiya dasturlari va shaxsiy mablag'lar ishtirok etadi. Bunga misol sifatida Innovatsion rivojlanish

jamg'armasi (InnoFond) tomonidan ilmiy-innovatsion loyihalarni grant asosida moliyalashtirish tizimini keltirish mumkin. Keyingi bosqichda venchur fondlari va farishta investorlar ishtirok etib, ular loyihaning ma'lum ulushiga egalik huquqi evaziga mablag' kiritadi. O'zbekistonda bu yo'nalishda IT Park Ventures va AloqaVentures kabi fondlar faoliyat yuritib, investitsiyalar hajmi bir necha ming dollardan bir million dollargacha bo'lgan diapazonni qamrab oladi. Yana bir shakl — raqamli startaplar uchun maxsus huquqiy rejim, ya'ni "tartibga solish qumdoni" bo'lib, u yangi texnologiyalarni amaldagi qonunchilik to'liq shakllanmagan sohalarda sinovdan o'tkazish imkonini beradi. Bundan tashqari, davlat tomonidan qarz mablag'larini imtiyozli asosda ajratish, subsidiyalash va kreditlarni kafolatlash kabi aralash moliyalashtirish instrumentlari ham qo'llanilmoqda.

Xorijiy davlatlar tajribasi

Venchur moliyalashtirish tizimini rivojlantirishda davlatning katalizator sifatidagi roli ko'plab mamlakatlar tajribasida o'z isbotini topgan. Isroilning 1990-yillarda joriy etilgan Yozma dasturi davlat mablag'lari hisobiga xususiy venchur fondlarini yaratishga ko'maklashish orqali mamlakatda zamonaviy venchur kapital sanoatining shakllanishiga asos solgan. Singapurda davlat startaplarga mos moliyalashtirish (matching grant) dasturlari va venchur investorlar uchun soliq imtiyozlari orqali xususiy kapitalni jalb qilishni rag'batlantiradi. Janubiy Koreyada esa davlat ishtirokidagi fondlar tarmog'i xususiy venchur fondlariga hammuallif sifatida sarmoya kiritib, ularning risklarini qisman o'z zimmasiga oladi. Ushbu tajribalarning umumiy xususiyati shundaki, davlat startaplarga bevosita mablag' taqsimlovchi emas, balki xususiy kapitalni jalb qiluvchi va risklarni taqsimlovchi institut sifatida ishtirok etadi.



O'zbekiston tajribasi

O'zbekistonda startap ekotizimini rivojlantirishning huquqiy asosi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonun bilan belgilangan bo'lib, unda startaplar uchun soliq imtiyozlari, davlat grantlari va loyihalarni baholashning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan. 2022-yil noyabr oyida qabul qilingan Prezident farmoni asosida raqamli startaplar uchun "tartibga solish qumdoni" maxsus huquqiy rejimi joriy etilib, uning amal qilish muddati 2027-yilgacha uzaytirilgan. 2024-yil oktabr oyida qabul qilingan tegishli qaror bilan startap va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish, shu jumladan xorijiy venchur investitsiyalarini jalb etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilandi. 2026-yil fevral oyida qabul qilingan navbatdagi qaror doirasida startaplarni qo'llab-quvvatlashning kompleks ekotizimini joriy etish nazarda tutilib, jamg'arma resurslari hisobidan qarz mablag'larini ajratishning tajriba-sinov instrumenti (2025-2026-yillarda 30 milliard so'm miqdorida) ishga tushirildi. Alohida yo'nalish sifatida sun'iy intellekt asosidagi startaplarni qo'llab-quvvatlash uchun 2026-2027-yillarda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan qo'shimcha 100 million dollar ajratilishi ko'zda tutilgan.

Amaliy natijalar ham sezilarli: InnoFond ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda 110 dan ortiq loyiha grant asosida moliyalashtirilgan bo'lib, ularning katta qismi sog'liqni saqlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda qishloq va suv xo'jaligi sohalariga to'g'ri keladi. IT Park Ventures fondi o'zining dastlabki bitimlarini jami 650 ming dollar miqdorida imzoladi, AloqaVentures fondi esa 750 ming dollarlik investitsiya bitimlarini yakunladi. Mamlakatda venchur fondlari soni 22 taga yetib, startaplarga kiritilgan umumiy investitsiya hajmi 132 million dollarni tashkil etmoqda. Shu bilan birga, klassik ma'nodagi institutsional venchur bozori hali shakllanish bosqichida bo'lib, moliyalashtirish asosan poytaxt va IT sohasi bilan chegaralanmoqda.



Afzalliklari

Startup loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish bir qator ijobiy natijalarga olib keladi:

- Bank kreditlariga muqobil, garovsiz va moslashuvchan moliyalashtirish manbalari yaratiladi, bu esa yangi tashabbuslarning bozorga kirish to'sig'ini pasaytiradi.
- Venchur fondlari va farishta investorlar orqali nafaqat mablag', balki xalqaro mentorlik tajribasi va biznes-aloqalar ham jalb etiladi.
- Risklarni davlat va xususiy sektor o'rtasida taqsimlash orqali yuqori texnologik va yuqori xatarli loyihalarga sarmoya kiritish rag'batlantiriladi.
- Yangi ish o'rinlari, ayniqsa yoshlar va malakali IT-mutaxassislar uchun bandlik imkoniyatlari kengayadi.

Muammoli jihatlari

Shu bilan birga, startup moliyalashtirish tizimida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, ventchur kapitalistlari va farishta investorlar uchun alohida soliq imtiyozlari mavjud emas, ularning daromadlari standart stavkalar bo'yicha soliqqa tortiladi, bu esa yuqori xatarli investitsiyalarning jozibadorligini pasaytiradi. Ikkinchidan, mavjud imtiyozlar asosan IT Park rezidentlari bilan chegaralangan bo'lib, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va boshqa innovatsion yo'nalishlardagi startaplar tegishli qo'llab-quvvatlashdan chetda qolmoqda. Uchinchidan, loyihalarni baholash, due diligence va shartnoma tuzish jarayonlarida malakali mahalliy mutaxassislar yetishmasligi investorlar uchun qo'shimcha xatar manbai bo'lib xizmat qilmoqda. To'rtinchidan, startaplardan chiqish (exit) mexanizmlari — ichki fond bozori, qo'shilish va sotib olish bitimlari amaliyoti — hali yetarlicha rivojlanmagan, bu



esa vechur investorlarning uzoq muddatli strategiyasini murakkablashtiradi. Beshinchidan, moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi asosan poytaxtda jamlangan bo'lib, mintaqalardagi tashabbuskor yoshlar tegishli resurslarga tengroq kirish imkoniyatidan mahrum.

Xulosa

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekistonda startap loyihalarni moliyalashtirish yo'nalishida muhim institutsional qadamlar qo'yilgan — tegishli qonunchilik bazasi shakllantirilgan, maxsus huquqiy rejimlar joriy etilgan, vechur fondlari va davlat qo'llab-quvvatlash dasturlari faoliyat yurita boshlagan. Shu bilan birga, tizim hali to'liq shakllanish bosqichida bo'lib, uni yanada takomillashtirish talab etiladi. Xususan, vechur va farishta investorlar uchun soliq imtiyozlarini joriy etish, mavjud maxsus huquqiy rejimlarni IT sohasidan tashqari boshqa innovatsion yo'nalishlarga ham kengaytirish, mahalliy ekspertiza salohiyatini oshirish, shuningdek startaplardan chiqish mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Bundan tashqari, moliyalashtirish infratuzilmasini mintaqalarga yoyish orqali startap harakatining butun mamlakat bo'ylab teng rivojlanishiga erishish mumkin. Ushbu yo'nalishlarda izchil islohotlarni davom ettirish O'zbekistonni mintaqada startap va vechur investitsiyalar markaziga aylantirish salohiyatini yanada mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 630-sonli "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-noyabrdagi PF-244-son "Raqamli iqtisodiyot va raqamli davlatni rivojlantirish" konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-357-son "Startup loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-fevraldagi PQ-59-son "Startaplarni qo'llab-quvvatlashning kompleks ekotizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // lex.uz.
5. Sun'iy intellekt asosidagi startaplarni qo'llab-quvvatlash uchun \$100 mln ajratiladi // Spot.uz, 2025-yil 31-oktabr.
6. Nurafshonda raqamli R&D markazi tashkil etiladi // Spot.uz, 2026-yil may.
7. Innovatsion rivojlanish jamg'armasi. Startup loyihalarni moliyalashtirish statistikasi // innofund.uz.
8. IT Park Ventures: O'zbekistondagi startaplarga ilk venchur investitsiyalar // it-park.uz, 2025.
9. Venchur kapital ekotizimini rivojlantirish: xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun tavsiyalar // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil jurnali, 2025-yil, oktabr.
10. Startup & Venture Summit 2025 natijalari // Aloqa Ventures, CB Insights ma'lumotlari, 2025.

